

**OMMAVIY SHARTNOMA № 101344141184**

Toshkent shahri

16.05.2025-y.

Ushbu Ommaviy shartnoma (keyingi o'rinlarda shartnoma deb ataladi) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 358-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi PF-5-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi 95-son qarori bilan tasdiqlangan 'Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish qoidalari' talablariga muvofiq yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibini belgilaydi. «Xizmat ko'rsatuvchi» deb ataluvchi nomidan ustav asosida faoliyat yurituvchi tashkilot va ushbu shartnomani tuzish to'g'risidagi ommaviy taklif (oferta)ni qabul qilgan (akseptlagan) ko'chmas mulk mulkdori (ijarachi, tekin foydalanuvchi), bundan buyon matnda 'Iste'molchi' deb ataluvchi (keyingi o'rinlarda Tomonlar/Taraflar deb yuritiladi) o'rtasidagi o'zaro huquq va majburiyatlar hamda munosabatlar tartibini belgilaydi.

1. Atamalar va tariflar

1.1.Shartnomada quyidagi ta'riflarni o'zida ifodalovchi asosiy atamalar qo'llanadi:

xizmat ko'rsatuvchi tashkilot - o'ziga birlashtirilgan hududda iste'molchilarga qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi, chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan tashkilot;

Iste'molchi - xizmat ko'rsatuvchi tashkilotga birlashtirilgan hududda joylashgan hamda xizmat ko'rsatuvchi tomonidan chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatiladigan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor;

«signal» usuli – chiqindi tashish texnikasi bilan aholi yashash punktlarini aylanib chiqib, signal berish yo'li bilan Iste'molchilarni xabardor qilish orqali yakka tartibdagi turarjoy sektoridagi qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish.

qattiq maishiy chiqindilar - jismoniy shaxslarning hayoti va faoliyati hamda yuridik shaxslarning faoliyati natijasida hosil bo'luvchi organik va noorganik chiqindilar, shuningdek, ular hududida va obodonlashtirish ob'ektlaridagi tabiiy jarayonlar natijasida hosil bo'luvchi chiqindilar (oziq-ovqat va o'simlik chiqindilari, to'qimachilik mahsulotlari, o'rash-joylash (qadoqlash) materiallari, shisha, rezina, qog'oz, plastmassa, yog'och chiqindilari, o'zining foydalanish xususiyatlarini yo'qotgan uy-ro'zg'or buyumlari, supurindi, shuningdek, qattiq yoqilg'ida ishlovchi maishiy pechkalar va isitish bug' qozonlaridan foydalanish natijasida hosil bo'luvchi chiqindilar);

xizmat ko'rsatish zonasi - mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari ko'rsatish uchun tegishli xizmat ko'rsatuvchi tashkilotga belgilangan tartibda birlashtirilgan tuman (shahar) hududi.

Maxsus platforma - Xizmat ko'rsatuvchi (Sanitar korxonalar) va iste'molchilar o'rtasidagi ushbu shartnomada hamda Xizmat ko'rsatuvchi va platforma operatori o'tasida tuziladigan shartnomalar bilan tartibga solinadigan munosabatlarni raqamlashtirishga qaratilgan maxsus platforma (<https://toza-hudud.uz>).

Platforma operatori - platforma faoliyatini tashkil etuvchi yuridik shaxs Wisisoft It Group MChJ);

Platforma ishtirokchisi - Xizmat ko'rsatuvchi va iste'molchi;

№	MXIK kodi va nomi	Mahsulot yoki xizmatga izoh	O'ram turi	miq-dori	Narxi	Etkazib berish bahosi	QQS		Yetkazib berishning QQSni hisobga olgan holda qiymati
							stavkasi, %	summasi, so'm	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	
1	09904002001000000 - Qattiq maishiy chiqindilarni (QMCh) olib ketish xizmati	Xizmat uchun narx haqiqatda ko'rsatilgan xizmat hajmidan kelib chiqib ta'rif asosida hisob-kitob qilinadi	kub. metr	57,6	89 977,57	5 182 707,96	12%	621 925	5 804 632,96
jami:						5 182 707,96	621 925	5 804 632,96	

Shartnomaning umumiy qiymati: Besh million sakkiz yuz to'rt ming olti yuz o'ttiz ikki so'm 96 tiyin

2. Shartnoma predmeti

2.1. Quyidagilar shartnoma predmeti hisoblanadi:

a) Iste'molchiga Obyektida tashkil etilgan chiqindi maydonchasi yoki konteynerdan chiqarish (konteyner shartnomasi) olib chiqib ketish bo'yicha pullik xizmatlar ko'rsatish uchun Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar my.soliq.uz portalidagi soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga kiritiladi. Bundan: xizmat ko'rsatuvchi tashkilot ommaviy shartnoma loyihalarini hududiy hokimliklar va Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining hududiy boshqarmalari bilan kelishgan shartnoma ma'lumotlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasiga (keyingi o'rinlarda – Soliq qo'mitasi deb yuritiladi) kiritadi, ushbu ma'lumotlar Soliq qo'mitasi tomonidan my.soliq.uz portalidagi soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga kiritiladi;

Shartnoma faqatgina faoliyati davomida alohida ko'chmas mulkdan foydalanadigan yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan mazkur ko'chmas mulk joylashgan hududga biriktirilgan sanitar tozalash korxonasi o'rtasida tuziladi;

b) Iste'molchi ushbu shartnomaning 1-bandida ko'rsatilgan jadval asosida to'lovni amalga oshiradi.

2.2. Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan quyidagi chiqindilarni olib chiqib ketish kelishilgan narxlarda alohida to'lov evaziga amalga oshiriladi:

sanoat chiqindilari, suyuq maishiy chiqindilar, yirik hajmli maishiy chiqindilar, qurilish chiqindilari va tuproq, tibbiyot chiqindilari, zaharli-kimyoviy chiqindilar.

3. Chiqindilarni chiqarish turlari va tartibi

3.1. Obyektning o'zidanchiqindilarni chiqarish (signal usulida, konteynersiz shartnoma):

- Bu usulda xizmat ko'rsatuvchi maxsus avtotransport vositasi obyektda yetib kelganda signal beradi, va iste'molchi chiqindilarni to'plab, ushbu transport vositasiga topshiradi.

- Xizmat ko'rsatuvchi signal olinganidan keyin belgilangan muddatda chiqindilarni olib chiqadi.

3.2. Chiqindi yig'ish maydonchasidan chiqarish (konteynersiz shartnoma):

- Bu turda iste'molchi chiqindilarni belgilangan chiqindi yig'ish maydonchasiga olib boradi, va xizmat ko'rsatuvchi tashkilot ushbu maydonchadan chiqindilarni olib chiqadi.

- Xizmat ko'rsatuvchi belgilangan jadval asosida yoki kelishilgan vaqtda ushbu maydonchadan chiqindilarni olib chiqadi.

3.3. Obyektida tashkil etilgan chiqindi maydonchasi yoki konteynerdan chiqarish (konteyner shartnomasi):

- Bu holda iste'molchi xizmat ko'rsatuvchi tashkilot belgilangan jadval yoki kelishuv asosida obyekt hududida joylashgan konteynerdan chiqindilarni olib chiqadi.

4. Iste'molchining huquq va majburiyatlari

4.1 Iste'molchi quyidagi huquqlarga ega:

- Shartnomaga muvofiq zarur ko'lamda, belgilangan sifatda, uning hayoti va salomatligi uchun xavfsiz bo'lgan, mulkiga zarar yetkazmaydigan xizmatlardan foydalanish;
- Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqishning minimal davriyligiga rioya etilishini talab qilish yoki o'zi xizmat ko'rsatish muddatini belgilash bo'yicha taklif berish;
- o'n ikki oydan ortiq bo'lmagan davr uchun oldindan haq to'lash, keyinchalik tegishli tariflar oshganda qaytadan hisob-kitob qilmaslik (qo'shilgan qiymat solig'i bundan mustasno);
- Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish jadvaliga rioya qilinmagan hollarda;
- Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning operativ tartibda qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish choralarini ko'rishi lozim;
- Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan shartnoma majburiyatlari sifatsiz bajarilgan hollarda Xizmat ko'rsatuvchiga yozma, elektron yoki og'zaki shaklda shikoyat qilish va Xizmat ko'rsatuvchidan xizmatlar to'liq ko'rsatilmaganligi yoki tegishli bo'lmagan sifatidagi xizmatlar ko'rsatilganligi holatini tasdiqlovchi dalolatnomani tuzishni, shuningdek, aniqlangan kamchiliklarning belgilangan muddatlarda bartaraf etilishini talab qilish;
- xizmatlar ko'rsatilayotganda Xizmat ko'rsatuvchi aybi bilan yuzaga kelgan kamchiliklarning bepul bartaraf etilishini talab qilish;
- yuridik shaxs faoliyatini vaqtincha yoki butunlay to'xtatganligi bo'yicha Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotga yozma ravishda xabardor qilish hamda shartnomada belgilangan tartibda xizmatlar ko'rsatilmagan davr uchun qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha xizmatlarga haq to'lash majburiyatlaridan to'liq ozod bo'lish;
- shartnoma tuzilayotganda (yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkor), maishiy chiqindilarni o'z vaqtida chiqarib yuborish zaruriyatidan kelib chiqqan holda, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarida belgilangan cheklangan muddatlardan oshmaydigan xizmat ko'rsatish muddatlarini belgilash;
- qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha sifatsiz xizmat ko'rsatilganligi sababli, agar Xizmat ko'rsatuvchi o'z vaqtida shartnomani bajarishga kirishmasa yoki sifatsiz xizmat ko'rsatsa, zararlar undirilishini talab qilib sudga murojaat qilish.
- Iste'molchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.2. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

- qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni ushbu shartnomada belgilangan muddatlarda o'z vaqtida va to'liq miqdorda to'lash;
- konteynersiz to'plash tizimida - Iste'molchi tomonidan chiqindilarni dasturda belgilab berilgan eng yaqin chiqindilarni to'plash shaxobchalariga tashlashni ta'minlash, agarda yaqin masofada chiqindilar to'plash uchun chiqindilarni to'plash shaxobchalari bo'lmagan taqdirda qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqish jadvaliga muvofiq maxsus chiqindi tashuvchi texnikalarga ortib berishni ta'minlash;
- qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun majburiy to'lovlarni Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurida davlat muassasasi shaklida Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish Agentligining maxsus tranzit bank hisobvaraqlariga to'lash;

- konteynerda to'plash tizimida - chiqindi to'plash shoxobchalarida chiqindilarni joylashtirishda chiqindilarni konteynerlarga yoki maxsus chiqindi yig'ish idishlarga tashlashni ta'minlash;
- qattiq maishiy chiqindilarni ruxsat etilmagan joylarga va ob'ektlarga tashlamaslik hamda joylashtirmaslikni ta'minlash (ko'chalarga, suv yo'llariga, ariq va qattiq hamda suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va ko'mish uchun belgilanmagan boshqa joylarga, shu jumladan, avtotransport vositalaridan ularning to'xtashi, to'xtab turishi yoki harakatlanishi vaqtida);
- qattiq maishiy chiqindilarni ularni joylashtirish ob'ektlarida (idishlar, yer o'ralari va hokazolar), tashkilot hududida, dalalarda va aholi yashash punktlarida yoqmaslikni ta'minlash;
- qattiq maishiy chiqindilarni maxsus avtotransport vositasiga ortish uchun Xizmat ko'rsatuvchining ortish joyiga bemalol o'tishini ta'minlash;
- chiqindi to'plash konteynerlari, chiqindi to'plash shoxobchalari, chiqindi to'plash kameralari va boshqa uskunalarning nosozliklari aniqlanganda Xizmat ko'rsatuvchini darhol xabardor qilishni ta'minlash;
- sanoat chiqindilari, suyuq maishiy chiqindilar, yirik hajmli maishiy chiqindilar, qurilish chiqindilari va tuproq, tibbiyot chiqindilari va zaharli-kimyoviy chiqindilarni vaqtinchalik maxsus ajratilgan joylarga joylashtirish va ular chiqindi to'plash shoxobchalaridagi konteynerlarga tashlanishiga yo'l qo'ymaslik;
- Iste'molchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5. Xizmat ko'rsatuvchining huquq va majburiyatlari

5.1. Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot quyidagi huquqlarga ega:

- qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha Iste'molchilarga ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, o'z vaqtida va to'liq hajmda olish;
- sanoat chiqindilari, suyuq maishiy chiqindilar, yirik hajmli maishiy chiqindilar, qurilish chiqindilari va tuproq, tibbiyot chiqindilari va zaharli-kimyoviy chiqindilarni alohida to'lov evaziga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish.
- To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmasa xizmat ko'rsatishni to'lov amalga oshirilgunga qadar vaqtincha to'xtatib turish.
- Xizmat ko'rsatuvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5.2. Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot quyidagilarga majbur:

- o'ziga biriktirilgan hududda qattiq maishiy chiqindilarning muntazam olib chiqib ketilishini amalga oshirish;
- qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqishning minimal davriyligiga rioya etish: chiqindi to'plash shoxobchalaridan haftada bir marotaba (tomonlarning kelishuv bo'yicha);
- Iste'molchilarga qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqish bo'yicha qonun hujjatlari va ushbu shartnoma talablariga muvofiq zarur sifatdagi xizmatlar ko'rsatish;
- Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish jadvaliga rioya qilinmagan hollarda Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning dispetcherlik xizmatiga tushgan Iste'molchilarning buyurtmanomalarini operativ tartibda (buyurtmanoma kelib tushgan kundan boshlab bir ish kundan kechikmay) bajarish;
- Iste'molchilarning ma'lumotlar bazasini yuritish va muntazam ravishda yangilab borish (ko'rsatilgan qo'shimcha xizmatlar bo'yicha);
- qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning rejimi va sifati bo'yicha Iste'molchilarning murojaatlari, shuningdek, ularning ijrosi hisobini olib borish;
- chiqindi to'plash shoxobchalari va konteynerlarning holatini nazorat qilib borish hamda ularning

tegishli holatda saqlanishini ta'minlash;

-chiqindi to'plash shoxobchalarining qattiq maishiy chiqindilarni to'plash uchun zarur miqdordagi konteynerlar bilan jihozlanishini ta'minlash;

-maishiy chiqindilarni mustaqil ravishda saralashni amalga oshirishni ta'minlash;

-chiqindi to'plash shoxobchalarini joriy va mukammal ta'mirlashni amalga oshirish;

-fuqarolarning hayoti va salomatligi, atrof muhit uchun xavfli bo'lgan bakteriyalarning va boshqa zararli moddalarning rivojlanishiga, chiqindilarning ko'plab to'planib qolishiga qarshi rejali ishlarni olib borish (konteyner va chiqindi to'plash shoxobchalarini dezinfektsiyalash yoki yuvib turish yo'li bilan va shu kabilar);

-qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning tartibi va tariflarining o'zgarganligi to'g'risida ushbu tariflar kuchga kirishidan o'n besh kun avval Xizmat ko'rsatuvchi ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali Iste'molchini xabardor qilish;

-Iste'molchilarga ularning so'roviga asosan qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning amaldagi tartibi, talablari, qoidalari va xizmatlar ko'rsatish tartibining, shuningdek, tariflarining o'zgarganligi to'g'risida bepul ma'lum qilish;

-qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishda buzilgan yer uchastkalarini qayta tiklash ishlarini amalga oshirish;

-Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning stendida, e'lonlar taxtasida ko'rsatilayotgan xizmatlar, ularning amaldagi tariflari, to'lov shartlari, shuningdek, qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqish jadvalini va mazkur shartnomani joylashtirish;

-Iste'molchiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati bo'yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va yangi kamchiliklarning oldini olish choralarini ko'rish;

-maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq ma'lumotlar va buxgalteriya hujjatlari besh yil mobaynida but holatda saqlanishini ta'minlash.

-Xizmat ko'rsatuvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6. Hisob-kitob qilish tartibi va shartlari

6.1 Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ularning faoliyat turlari va xususiyatlaridan kelib chiqib, chiqindi to'plash me'yorlarini va tariflarini tasdiqlaydi hamda ommaviy shartnomadagi to'lov summalari ushbu me'yorlarga asoslangan holda belgilanadi.

6.2. Bunda, maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmat narxlari Iste'molchi hamda Xizmat ko'rsatuvchi o'rtasida tuzilgan mazkur ommaviy shartnomaning turiga asosan(konteynerli, konteynersiz) belgilanadi. "Konteynerli" shartnoma - Bir oylik xizmat uchun narx haqiqatda ko'rsatilgan xizmat hajmidan kelib chiqib tarif asosida hisob-kitob qilinadi. "Konteynersiz" shartnoma - Bir oylik xizmat uchun narx belgilangan hajmdan kelib chiqib to'lanadi.

6.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 26 sentyabrdagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida ochiqlikni ta'minlash hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-149-sonli Farmoniga muvofiq qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun majburiy to'lovlar yuridik shaxslar tomonidan to'lov hisoblangan davrdan keyingi oyning o'ninchi sanasiga qadar Agentlikning maxsus tranzit bank hisobvaraqlariga to'lanadi va uning maxsus bank hisobvarag'ida jamlanadi, shuningdek jamlangan mablag'lar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda taqsimlanadi va to'lov topshiriqnomalarisiz tegishli tashkilotlar hisobvaraqlariga avtomatik tarzda o'tkaziladi.

6.4. Quyidagi holatlarda ushbu shartnoma tuzilmagan hisoblanadi:

- iste'molchi faoliyat olib boradigan hududda sanitar tozalash korxonalari faoliyati yo'lga qo'yilmaganda;

- iste'molchi faoliyat olib boradigan hududda o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq maishiy chiqindilarni yig'ish maydonchalari (konteyner yoki maxsus chiqindilarni saqlash joylari) joylashtirilmagan taqdirda, bunda maishiy chiqindilarni yig'ish maydonchalarini (konteyner yoki maxsus chiqindilarni saqlash joylari) joylashtirish me'yor va tartiblari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi;

- yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorda qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqish uchun mo'ljallangan maxsus avtotransport vositasi mavjud bo'lganda hamda u bilan chiqindi poligoni o'rtasida qattiq maishiy chiqindilarni joylashtirish va utilizatsiya qilish bo'yicha shartnomalar tuzilganda.

6.5. Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha xizmatlar uchun to'lovlar majburiy hisoblanadi.

6.6. Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha xizmatlar uchun to'lovlar xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning bank hisobvarag'iga har oyda 100 foiz oldindan to'lov asosida amalga oshiriladi.

Sanoat chiqindilari, suyuq maishiy chiqindilar, yirik hajmli maishiy chiqindilar, qurilish chiqindilari va tuproq, tibbiyot chiqindilari hamda zaharli-kimyoviy chiqindilarni olib chiqish bo'yicha alohida xizmatlar uchun to'lovlar bevosita Xizmat ko'rsatuvchining bank hisob raqamiga 100 foiz oldindan to'lov asosida amalga oshiriladi.

6.7. Iste'molchilar bo'nak tariqasida to'langan to'lovlar uchun, ushbu davrda tegishli tariflar oshgan taqdirda, to'lov amalga oshirilgan sanadan o'n ikki oydan oshmaydigan davrga qayta hisob-kitob qilishdan ozod etiladilar (qo'shilgan qiymat solig'i bundan mustasno).

6.8. Maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar uchun to'lovlarning qayta hisob-kitobi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6.9. Maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha tegishli bo'lmagan sifatdagi xizmatlar ko'rsatilganda yoki xizmat ko'rsatilmagan taqdirda Iste'molchi tegishli davr uchun to'lovlardan ozod etiladi.

6.10. Maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmagan yoki tegishli bo'lmagan sifatdagi xizmatlar ko'rsatilganligi holati aniqlangan hollarda manfaatdor shaxslar tomonidan Iste'molchi, Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning vakili tomonidan imzolananadigan, xizmatlar ko'rsatilmaganligi yoki tegishli bo'lmagan sifatdagi xizmatlar ko'rsatilganligi holatini tasdiqlovchi dalolatnoma tuziladi hamda to'plangan hujjatlar elektron tarzda Ekologiya vazirligiga kiritiladi.

6.11. Xizmatlar ko'rsatilmaganligi yoki tegishli bo'lmagan sifatdagi xizmatlar ko'rsatilganligi to'g'risida tuzilgan dalolatnoma xizmatlar uchun to'lovlar miqdorini qayta hisob-kitob qilish, uchun asos hisoblanadi.

6.12. Xizmat ko'rsatuvchi tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar bilan bog'liq ravishda Iste'molchiga yoki uning mol-mulkiga zarar yetkazilgan taqdirda, Iste'molchi tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda yetkazilgan zarar holati qayd etilgan dalolatnoma tuziladi. Dalolatnoma Iste'molchining imzosi, Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot vakillarining imzolari bo'lgandagina haqiqiy hisoblanadi.

6.13. Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning vakili dalolatnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda u ushbu dalolatnomaga imzo qo'yishdan bosh tortganlik sabablarini yozma ravishda asoslashi shart. Aks holda Iste'molchi maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha xizmatlar uchun to'lovlarni sud qarori qabul qilinguniga qadar to'xtatishga haqlidir.

6.14. Mulk egalari tomonidan Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot vakillariga yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatini vaqtincha yoki butunlay to'xtatganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgan taqdirda, qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha xizmatlar uchun to'lov undirilmaydi.

7. Tomonlarning javobgarligi

7.1. Majburiyatlarni buzganlik uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va ushbu shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladilar.

7.2. Xizmat ko'rsatish muddatlarini buzganligi uchun Iste'molchi Xizmat ko'rsatuvchidan har bir kun uchun kechiktirib ko'rsatilgan xizmat narxining 0,4 % (foizi) miqdorida penya to'lashni talab qilishga haqlidir, lekin talab qilingan penya miqdori, ushbu shartnoma bahosining 50 %(foizi)dan ortiq bo'lishi mumkin emas.

7.3. Xizmat uchun to'lov shartlarini buzganligi uchun Xizmat ko'rsatuvchi Iste'molchidan kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 (foizi) miqdorida penya to'lashni talab qilishga haqli, lekin talab qilingan penya miqdori, ushbu shartnoma bahosining 50 %(foizi)dan ortiq bo'lishi mumkin emas.

7.4. Fors-major holatlari tufayli Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishning imkonsizligi yuzaga kelgan tomon 5 (besh) ish kuni ichida boshqa tomonga bunday holatlar yuzaga kelishi va tugashi to'g'risida yozma ravishda habar berishi kerak.

7.5. Shartnoma va unga qo'shimcha bitim (kelishuv)larning shartlari va Shartnomaga muvofiq Tomonlar tarafidan olingan boshqa ma'lumotlar maxfiydir va oshkor etilishi mumkin emas.

7.6. Shartnomaning amal qilishi Iste'molchining tashabbusi bilan bekor qilingan taqdirda, bajarilgan ishlar uchun to'lov Iste'molchi tomonidan Xizmat ko'rsatuvchining haqiqiy xarajatlari bo'yicha shartnoma bekor qilingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

7.7. Mazkur shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish uchun bir taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdan rad javobi olganidan keyingina yoki taklifda ko'rsatilgan yoxud qonunda yoinki shartnomada belgilangan muddatda, bunday muddat bo'lmaganida esa — 30 (o'ttiz) kunlik muddatda javob olmaganidan keyin shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin. Bunda o'ttiz kunlik muddat taklif olingan paytdan, agar taklif olingan muddat noma'lum bo'lsa, ikkinchi taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifni olishi uchun normal zarur bo'lgan vaqt o'tgan paytdan boshlab hisoblanadi.

7.8. Iste'molchi Xizmat ko'rsatuvchi tomonidan taqdim etilgan taqqoslash dalolatnomasini 3 (uch) ish kuni ichida imzolashi lozim. Agar Iste'molchi ushbu muddatda dalolatnomani imzolamasa yoki asoslantirilgan yozma rad javobini bermasa, har kechiktirilgan kun uchun Iste'molchi Xizmat ko'rsatuvchiga shartnoma summasining 0,1% miqdorida penya to'laydi.

7.9. Shartnomada ko'zda tutilmagan boshqa barcha javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

8. Taraflarning korrupsiyaga qarshi ko'shimcha shartlari

8.1. Taraflar/Tomonlar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy xarakterlarni sodir kilmasslikka kelishib oldilar.

8.2 Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralari tan oladi va ularga rioya etilishi buyicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

8.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabalar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l kuyilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi xarakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi.

Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb kilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi xarakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar kuradi.

8.4. Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o'zining ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladai, uchiichi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi:

a) nazorat qiluvchi organlardan litsenziya va ruxsatnomalar olish, soliq solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, sudda ish ko'rilishi, qonunchilik jarayoni va boshqa sohalarida qonunga xilof ravishda tijorat yoki boshqa tusdagi ustunlikka ega bulish yoki saqlab qolish maksadida yuqoridagi shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy naf olishning taklif etilishi, va'da qilinishi, berilishiga;

b) qonunga xilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashliligini yashirishga;

c) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyik o'tkazish yoki tahdid qilish. Ushbu holat buyicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart

8.5. Taraflar tovarlar, xizmat va ishlarni realizatsiya qilish va o'tkazishda, bitimlar tuzish bo'yicha muzokaralar olib borishda, litsenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyuterlar, huquqshunoslar, hisobchilar, ular nomidan harakat qiluvchi boshqa vakillarga) nisbatan qo'yidagi harakatlarni amalga oshirishi shart:

- korrupsiyaviy xarakatlarga yo'l qo'yib bulmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish;

- ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik;

- ularni faqat tarafniig oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb qilish;

- ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.

8.6 Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat kiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga karshi kushimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi xolatlarini xakida xabar berilganligi uchun ularga tazyik utkazilmasligi kafolatlaydilar.

8.7 Agar bir tarafga boshka tarafning korrupsiyaga qarshi ko'shimcha shartlarning 8.4 va

8.5-bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo'l qo'yganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu hakda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart.

9. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1. Ommaviy Shartnoma my.soliq.uz portalidagi iste'molchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi va Iste'molchi uni 10 (o'n) kun ichida elektron raqamli imzosi yordamida imzolaydi va u o'sha kuni yuridik kuchga kiradi yoki asoslantirilgan tartibda imzolashni rad etadi aks holda shartnoma u shaxsiy kabinetga yuborilgan kundan 10 (o'ninchi) kuni belgilangan tartibda imzolangan hisoblanib, yuridik kuchga kiradi.

9.2. Shartnoma Iste'molchi tomonidan imzolangan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

9.3. Iste'molchi tomonidan ushbu shartnomada ko'rsatilgan shartlarni bajarish yuzasidan qilingan harakatlar (chiqindi to'plash shoxobchalarida chiqindilarni joylashtirishda, chiqindilarni konteynerlarga tashlash yoki Xizmat ko'rsatuvchining maxsus avtotransport vositasiga joylashtirish, ko'rsatilgan xizmatlar uchun tegishli summani to'lash va shu kabilar):

chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha ommaviy shartnomalarni elektron hujjat aylanish tizimi operatorlari axborot tizimi orqali rasmiylashtirilishi aksept hisoblanadi. Ushbu Shartnoma Tomonlar o'rtasida imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2025-yil 31 dekabrga qadar amal qiladi. Agar, Shartnomaning belgilangan amal qilish muddati tugaganidan so'ng, Tomonlar o'z shartlarini bajarishni davom ettirsa va Tomonlarning hech biri uning bekor qilinishini e'lon qilmagan bo'lsa, Shartnoma har bir keyingi yilga uzaytiriladi va uzaytirishlar soni cheklanmagan

10. Nizolarni hal qilish

10.1. Shartnomadan kelib chiqadigan nizolarni sudgacha hal qilish tartibi ya'ni talabnoma yuborish tartibi Tomonlar uchun majburiydir.

10.2. Talabnoma buyurtma yoki qimmatli xat tarzida, telegraf, teletayp orqali, shuningdek talabnoma jo'natilganligini qayd etadigan, qabul qilib oluvchini ogohlantiradigan boshqa aloqa vositalaridan foydalanilgan holda jo'natildi yoxud tilxat olib topshiriladi.

10.3. O'ziga talabnoma bildirilgan xo'jalik yurituvchi subyekt talabnomani olgan kundan boshlab o'n besh kunlik muddat ichida unga javob qaytarishi shart.

10.4. Tomonlar zudlik bilan to'lanishi lozim bo'lgan hal etilmagan barcha da'volar bo'yicha bir-birlarini yozma ravishda darhol xabardor qilishlari shart.

10.5. Tomonlarning Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasligi munosabati bilan yuzaga keladigan hal qilinmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida hal qilinadi.

11. Boshqa shartlar

11.1. Ushbu Shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma ravishda rasmiylashtirilib, har ikki tomondan imzolangan bo'lsa, qonuniy kuchga ega va Shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

11.2. Mazkur Shartnomaning biron bir bandi ijrosi ta'minlanmasa yoki amal qilishi bekor bo'lsa, bu o'z navbatida Shartnomaning boshqa bandlari ijrosi ta'minlanmasligiga yoki amal qilishini bekor bo'lishiga ta'sir ko'rsatmasa, Tomonlar o'zaro kelishuv asosida ushbu bandlarni yanada qulay shakllarga o'zgartirish bo'yicha qo'shimcha kelushuvlar imzolashi mumkin.

11.3. Shartnomaning barcha ilovalari uning ajralmas qismidir.

11.4. Tomonlardan birining yuridik manzili, rekvizitlari o'zgarganda tomonlar 3 (uch) kalendar kuni ichida tegishli o'zgarishlar to'g'risida bir-birlarini yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladilar.

11.5. Agar Iste'molchi o'z majburiyatlarini belgilangan muddatlarda bajarmagan taqdirda, Xizmat ko'rsatuvchi Iste'molchining bank hisobvarag'idan akseptsiz tarzda qarz summasini va unga hisoblangan foizlarni yechib olish huquqiga ega.

11.6. Akseptsiz pul yechish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

11.7. Xizmat ko'rsatuvchi Iste'molchiga majburiyatlarni bajarmaganligi to'g'risida yozma ravishda talabnoma beradi va belgilangan muddat ichida qarzni to'lashni talab qiladi.

11.8. Agar Iste'molchi belgilangan muddat ichida qarzni to'lamasa, Xizmat ko'rsatuvchi Iste'molchining bank hisobvarag'iga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda akseptsiz pul yechish to'g'risidagi to'lov talabnomani yuborish huquqiga ega.

11.9. Bank Xizmat ko'rsatuvchidan talabnomani olganidan so'ng, Iste'molchining hisobvarag'idan ko'rsatilgan summadagi mablag'larni akseptsiz tarzda yechib oladi va Xizmat ko'rsatuvchining hisobvarag'iga o'tkazadi.

11.10. Agar Iste'molchining hisobvarag'ida yetarli mablag' mavjud bo'lmasa, Xizmat ko'rsatuvchi qolgan qarz summasini to'liq qoplanmaguncha akseptsiz pul yechish huquqini saqlab qoladi.

11.11. Mazkur Shartnomada tartibga solinmagan barcha masalalar, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

11.12. Ommaviy taklif (oferta) bilan tanishish uchun havola:

https://toza-hudud.uz/public/pages/m_conspects

11.13. Ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha xizmat haqi hisoblash me'yorlari bilan quyidagi havola orqali tanishib chiqing:

<https://toza-hudud.uz/services/platon-core/uploads/files/8a81813b54d51561da49e72d>

11.14. Obyektda tashkil etilgan chiqindi maydonchasi yoki konteynerdan chiqarish manzil: Toshkent shahri Bektemir tumani PORLOQ KO`CHASI 14A-UY

11.15. Chiqindilarni olib ketish joyining lokatsiyasi: lat - 41.231008 lng - 69.311007

TOMONLARNING REKVIZITLARI

Yetkazib beruvchi (Xizmat kursatuvchi)

Nomi: TOSHKENT SHAHAR HOKIMLIGI
HUZURIDAGI MAXSUSTRANS ISHLAB
CHIQRISH BOSHQARMASI DAVLAT
KORXONASI

Manzil: TOSHKENT SHAHRI, UCHTEPA
TUMANI, SANOAT ZONASI BEKOBOD,

Telefon::: (71)247-35-99

H/r: 22604000805565269666

MFO: 00419

STIR: 200903001

OKED: 38110

Sotib oluvchi (Buyurtmachi)

Nomi: PAPPENBURG UZBEKISTAN MAS`ULIYATI
CHEKLANGAN JAMIYAT QO`SHMA KORXONA

Manzil: PORLOQ KO`CHASI 14A-UY

Telefon::: (93)501-14-06

H/r: 20214000905044570001

MFO: 00424

STIR: 306266147

OKED: 23640

2021489083

16.05.2025 16:01:28

YUBORILGAN

TOSHKENT SHAHAR HOKIMLIGI HUZUR

operator: hujjat.uz

2013799960

19.05.2025 10:02:02

TASDIQLANGAN

PAPENBURG UZBEKISTAN MCHJ

operator: didox.uz

IP: 86.62.2.42

<https://hujjat.uz/public/pages/contract?id=2e042eb7-4dfa-4b5e-b88a-a4a6424b904d&pin=cG47uV73>